

21-mart - Navro'z umumxalq bayrami!

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:12 (67073)
2016-yil
21-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



QADRIYATLAR ULUG'LANGAN YURT

Ona diyorimiz uzra Navro'z shukhi kezmogda. Borliq o'z go'zalligini ko'z-ko'z qilmoqchidek turfa rangda jilolanadi. Qut-baraka, ezgulik, mehr-muruvvat, odamiylik va oqibat ayyomi Navro'z dillarni surur va umidga to'ldiradi. Yaqinda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabida ham bayram shodiyonalari bo'lib o'tdi.

(Davomi 2-betda)

NAVRO'ZNI FRANSIYADA QARSHILAYMAN

– deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 9-«G» sinf o'quvchisi Muhammadali Mamanazarov

Yurtimizda Navro'z bayrami katta tantana bilan nishonlanayotgan kuni tengdoshingiz Muhammadali 42 kg vazn toifasida mamlakatimiz sharafini himoya qilish uchun katta maydonga chiqdi. Uning sevimli bayramimizga ajoyib sovg'a tuhfa qilishi, shubhasiz.

Tengdoshingiz Muhammadali besh yildan buyon «Dinamo» sport majmuasida dzyudo bilan shug'ullanib kelmoqda. Uning ustozlar o'gitiga amal qilishi, usullarni puxta o'zlashtirishga intilishi bugunga kelib o'z samarasini bermoqda. O'tgan yili Fransiya, Rossiya va Ozarbayjon davlatida o'tkazilgan musobaqalarda sovrindor bo'lishi o'ziga bo'lgan ishonchni yanada ortishiga xizmat qildi. Qahramonimizning onasi Sabohat opa Pattayevadan uning ikki akasi va ikki ukasi ham

dzyudo va suzish mashg'ulotlariga borishlarini bilib oldik. Ustozlardan o'rganganlarini uyda aka-ukalarning maromiga yetkazish uchun soatlab mashg'ulotlari g'alabalar garovi bo'lmoqda ekan. Shuningdek, yosh polvonimizning nihoyatda sabrli, uy ishlarida onasining yaqin yordamchisi ekanligini bilib oldik. Sabohat opa o'g'lining har doim bellashuvning so'nggi daqiqalarida g'alabaga erishishda suzishga qatnashning ham ta'siri borligini alohida ta'kidladi.



Bo'sh kelma, Muhammadali!

Muhammadali har gal gilamga chiqishi oldidan ustoz Bahodir Uzoqberganov «Hayajonlanma, sen, albatta, yutasan», deb dalda berarkan. O'sha lahzalarda uning ko'z oldidan ona yurtimiz, uydagilari, o'qituvchi-yu maktabdoshlari bir-bir o'tarkan. Hayajonini bosish uchun qayerda bo'lmasin, o'zining «Dinamo» majmuasidagi qadrdon zalida bellashayotgandek his qilarkan. Muhammadali nufuzli musobaqa oldidan tahriyatga kelib, quvonchiga sherik qilganidan biz ham sevindik.

Yusuf ABDULLAYEV

ANDIJONNING UMIDLI YOSHLARI

Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 22-umumta'lim maktabining rahbari Yayra Usmonova 5-«A» sinf o'quvchilari bilan Navro'z bayramining an'anaviy udumlari, milliy qadriyatlar haqida suhbatlashmoqda.



Andijon viloyati, «Barkamol avlod» bolalar markazi «Yosh musavvir» to'garagi a'zosi, Andijon shahridagi 19-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Zulayho Tojiddinova maftunkor yurtimiz tabiatini o'z chizgilarida ifodalashga harakat qiladi.



ZUBAYDA olgan suratlar

Yoshlik! Bu so'zni eshitganimizda, ruhiyatimizga bir jo'shqinlik, zavq-u shavq ingandek bo'ladi. Ko'z o'ngimizda qalbi ezgu orzulariga limmo-lim azm-u shijoatli yigit-qizlar bo'y ko'rsatadi.

AZIZAGA HAVAS QILING!

xalqaro tanlovlarda, musobaqalarda, fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitayotgan yoshlarimiz borki, ular haqida har qancha gapirsak, yozsak arziydi. Bunday yoshlarimizning salmoqli qismini qizlarimiz tashkil etayotgani qalbimizni yanada nurlantiradi.

V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litseyining 1-bosqich «Maxsus fortepiano» bo'limi o'quvchisi Aziza Botirova ana shunday iqtidorli qizlarimizdan biri. U bolaligidan san'atga mehr qo'ydi. Azizadagi qiziqishning bolalarcha o'tkinchi bir havas emasligini anglagan, qolaversa, san'atning inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri borligini yaxshi bilgan ota-onasi unga musiqa bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratib berishdi.

Bugun u barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish barobarida davlat miqyosidagi konsert dasturlarida, shuningdek, litseyda bo'lib o'tadigan «Bolalar – bolajonlarga» xayriya konsertlarida ham muntazam ishtirok etib kelmoqda. Respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab, ustozlari ishonchini oqlamoqda.



Azizaxon Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining bu yilgi sovrindorlari safidan munosib o'rin egalladi.

Jumladan, 2012-yilda Parijning N. Rubinshteyn shahrida o'tkazilgan xalqaro tanlovda 1-o'rinni egalladi. Italiyaning Perudjio shahrida bo'lib o'tgan «Pianofortissimo» xalqaro tanlovinin ikkita nominatsiyasida Gran-pri sohibi bo'ldi. 2015-yili Xitoyning Pekin shahrida o'tgan xalqaro bolalar festivalida 1-o'rinni qo'lga kiritib, yoshlarimiz hech kimdan kam emasligini dunyoga yana bir bor namoyish etdi. O'zbekiston Davlat konservatoriyasining katta zalida dirijor E. Azimov rahbarligidagi «Turkiston» kamer orkestrining solisti sifatida ishtiroki san'at ixlosmandlari qalbida iliq taassurotlar qoldirdi.

San'at olamiga yoshlik nafasi bilan kirib kelayotgan Azizaxonga havas qiling, uningdek bo'lishga Siz ham intiling, aziz qizlar!

Feruza JALILOVA

QADRIYATLAR ULUG'LANGAN YURT



(Davomi. Boshi 1-betda)

«Qadriyatlar ulug'langan yurt farzandiman» deb nomlangan ushbu tadbirni boshlang'ich o'qituvchisi Norsuluv opa Norqulova boshchiligidagi 3-«B» sinf o'quvchilari tashkilatlashdi. Mazkur sinfning Munira Toshtemirova, Mushtariy Abduvahobova, Abbas Anvarov, Akbar G'oyibnazarov kabi 34 nafar iqtidorli o'quvchilari o'zlarining ajoyib sahna ko'rinishlari va raqslari bilan yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'lishdi.

– Barcha bayramlar aziz va qadri. Ammo Navro'zning sog'inchi va shukhi bo'lakcha. Shukurkim, yurtimiz tinch, dasturxonimiz to'kin, farzandlarimiz sog'-salomat. Xalqimizning orzulari mo'l, tilaklari bisyor, nuroniy otaxonlar, kayvoni onaxonlar, quvnoq bolakaylar, xullas, barcha-barcha Navro'z sayliga oshiqadi, – deydi maktab rahbari Mahzuna opa Hamdamova.

Tadbirda o'quvchilarning ota-onalari ham ishtirok etishgani kechaga yanada ko'tarinki ruh baxsh etganday bo'ldi. Chunki Navro'z oilalarni birlashtiruvchi, insonlarga ezgu niyat, yaxshilik va bir-biriga mehr-muhabbat ulashuvchi milliy qadriyatlarimizning yorqin ifodasi bo'lmish go'zal bayramdir.

JAMOLXON

Bahor tarovati

– Men bahorni ortga surmoqchiman, o'rnimni bo'shatgim yo'q,
– dedi Qish injiqlik bilan fasllar kelinchagi Bahoroyga o'rmini bo'shatgisi kelmay.
– Qancha harakat qilma, fasllar almashuvini to'xtata olmasan, – dedi bobo Quyosh ko'kda charaqlab nur sochib.

Qish Quyosh iliq mehri bilan Bahoroyni chorlayotganini ko'rib, yum-yum yig'lab, ko'z yoshlarini yomg'irlarga yubordi. Yomg'irlar Ko'klam kelishidan darak berib, maysalar, gul-u chechaklar bilan yer yuzini, kurrai-zaminni bezay boshladi. Jonzotlar uzoq uyqudan uyg'onib, g'imirlab qolishdi. Qish atrofga alanglab, so'nggi nafasigacha Bahoroyning qadamini qaytarishga urindi. Lekin uddasidan chiqa olmadi. Oxirgi qor parchalari ham anhorlarga tushib, erib bitayotganligini ko'rib, chor-atrofga izg'ib yugura boshladi. Ammo uning sovuq nafasi Quyoshning iliq nurlarida erib ketaverdi. Bahoroy esa allaqachon iliq nasmlarini butun borliqqa yoyib ulgurandi.

Sohibaxon O'SARALIYEVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
2-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Bobo quyoshning iliq nurlari avval bog' o'rtasidagi kekxa yong'og' daraxti shoxlarini silkitdi. Keyin asta-asta uni uyg'ota boshladi: «Ey, bobo daraxt! Ko'zingni och, shoxlaringdagi kurtaklaringga jon bag'ishla. Axir ko'klam keldi. Bundan boshqa daraxtlarni ham ogoh et».

Daraxtlar suhbatlari

(Badiya)

Saxiy quyoshning jonbaxsh xitobi shu tarzda butun bog'ni qamrab oldi. Asta-sekin uyg'onish sadolari – novdalarning bir-biriga beozor urilishidan hosil bo'lgan shitir-shitirlar eshitila boshladi. Qayerdandir yosh gilos niholining beozor aksirishi eshitildi. «Sog' bo'l», deyishdi endi-endi uyg'ona boshlagan ba'zi daraxtlar. «Katta daraxt bo'lib yetil. Shoxlaring hech qachon qayrilmasin», deya duo qildi kekxa yong'og'.

– Voy, buncha sovuq! – g'ujanak bo'lib engashib giloscha atrofga o'g'rincha nazar soldi. Go'yoki, sovqotayotganini sezdirmaslik maqsadida o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab ko'rdi. Bu holatini kuzatib turgan kekxa yong'og' uni alqay boshladi:
– Voy, bechora bolam-a. Sovuq qotdingmi? Hechqisi yo'q. Men hozir shoxlarimni bir tarafini yig'ib turaman.



Quyosh nuridan isinib ol.

Shu zayl bog'dagi daraxtlar bir-bir ko'zini uqalaganicha uyg'ona boshladi. Avval olma, o'rik daraxtlari ko'zini ochishdi. Keyin shaftoli, behi daraxtlari suhbatga qo'shildi.

– Yong'og' bobo, sizningcha, bu yil qay birimizning mevamiz mo'l-ko'l bo'larkin? – shoshqaloq o'rik yana odatiy savolini berdi. Yong'og' avval biroq sukut saqlab turdi va so'ng dedi:

– Endi bolam, buning barchasi ona tabiatimizga bog'liq. Quyosh mana shunday porlab turaversa, barchamizning mevamiz mo'l bo'lishi tayin. Lekin ba'zi-ba'zida hasadgo'y shamol bexosdan qattiq esib, ko'p gullarimizga qiron keltiradi. Kelinglar, yaxshisi, Navro'z bayramigacha kuta qolaylik. Chunki Navro'zdan haqiqiy yangi kun boshlanadi. Bejizga odamlar «Navro'z keldi – rizq-ro'z keldi», deyishmaydi-da!

Bu gaplardan so'ng barcha daraxtlar biroq o'yga tolishti. Keyin birvarakayiga, «Xo'p bo'ladi, yong'og' bobo», deyishdi. Bu ahillikni ko'kda porlab turgan bobo quyosh ham goh bulutlar ortiga yashiringanicha, goh kulib boqqancha samimiy ma'qullar edi.

Farhod ESHMO'MINOV

UYG'ONISH VA YASHARISH FASLI

Navro'z go'zallik, tiriklik va uyg'onish fasli. U ming yillar davomida kishilarda ona yerga muhabbat, zamin va tabiatni asrab-avaylash tuyg'usini tarbiyalagan, poklikka undagan. Navro'z kunlarida arazlar, gina-kuduratlar unut bo'lgan. Unda urushlarga chek qo'yilgan, insonlar tinchtuvlikda yashashgan.

Halim, sumalak kabi taomlar ham Navro'zga xos. Qadimdan qaysi hovlida sumalak tayyorlansa, o'sha yerda o'yin-kulg'i avjiga chiqqan. Rivoyat qilishlaricha, sumalak, aslida, «Simalak» – o'ttiz pari, o'ttiz farishta, degani ekan. Aytishlaricha, bu taomni qozon boshida o'ttiz malak o'ttirib pishirarkan. Yana bir afsonada keltirilishicha, qadimda Fotima ismli ayolning ikki nafar egizak o'g'illari – Hasan va Husan bo'lgan ekan. Bir kuni bolalarning qorni och qolib, onasiga yig'lashni boshlashibdi. Ayol boyaqish nima qilarini bilmay, uyidan nariroqda o'sayotgan ko'm-ko'k maysani keltirib, qozonga tashlabdi. Suv quyibdi, tosh solibdi, olovni balandlatib pishirishni boshlabdi. U qozonni uzoq kovlabdi, bolalar ovqat pishishini kuta-kuta charchab, uxlab qolibdi. Ayol tongda uyg'onib, ne ko'z bilan ko'rsinki, qozondagi maysa va suv ajoyib taomga aylaniydi. Sevinib ketgan Fotima bolalarining qornini to'yg'azibdi.

Bir so'z bilan aytganda, qishdan keyingi ilikuzildi paytidagi vitamiga boy bir piyola sumalakning hayotbaxsh kuchini hech bir so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi.
Shavkat KAZAKBAYEV



NIZOMIDDIN olgan surat

Andijon tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchilari Shuhratbek Tillaboyev, Jamshid Hoshimov, Malohat Abdushukurova, Noila Adhamova, Asliddin Davlatov, Abubakir Tojimuhammedov bayramga eng chiroyli sovg'a kitob ekanligini yaxshi bilishadi.

Omina aqlli, odobli va a'lochi qiz. Faqat uy ishlariga sal uquvi yo'qroq. Onasi «Katta bo'lsang, o'rganib olarsan», deb unga ish qildirmasdi.

MEHNAT – QIZLARGA ZIYNAT

Omina: «Oyijon, hovli-uylarni menam supuray», deb so'rasa, «Sen borib darslaringni qil, uy ishlarini menga qo'yib ber, qizalog'im», derdi.

Omina faqat o'qish, dars tayyorlash bilan band bo'lardi.

Uch dugona – Omina, Sevara va Malohat har shanba kuni sinfda navbatchilik qilishadi. Har shanbada xona yaraqlab turardi. Sinf rahbari navbatchilarni maqtasa, Omina: «Eng katta ishni men qildim-da, ustoz», deb qo'yardi. Bu shanba Sevara kasal bo'lib, maktabga kelmadi. Malohatning buvisi betob bo'lgani sababli, darslardan qolishga

majbur bo'ldi. Navbatchilik Ominaning o'ziga qolib ketdi. U nima qilishni bilmay qoldi, boshqa dugonalarini yordamga chaqiray desa, ular bilan arazlashib qolgandi. U ishni chang artishdan boshladi, keyin xonani changitib supurdi, changdan tomog'iga yo'tal keldi shekilli, «Uf-f, changib ketdi», deb xonaga suv sepib chiqdi. Tuvakdagi gullarni artayotganda, bittasini sindirib qo'ydi. Shu payt sinf rahbari xonaga kirib keldi. Ahvolni ko'rib, hayron bo'ldi. Omina uyatdan lovlol yongancha bor gapni aytib, uzr so'radi.

Ertasi kuni u hammadan erta

turib, hovli-ko'chalarni supurib, suv sepib qo'ydi. Qo'lidan kelgancha nonushta tayyorladi. Onasi turib qarasa, hamma joy supurilgan, choy tayyor...

Omina endi har tong hovli-ko'chalarni supuradigan, maktabdan kelib, uy ishlariga qarashadigan bo'ldi. Onasi ham qizining harakatini ko'rib, uy-ro'zg'or ishlarini yanada puxta o'rgatishga kirishdi.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi



«AVLOD»NING IQTIDORLI AVLODLARI

Sizga ma'lumki, gazetamiz ijodkorlari har gal yurtimizning turli go'shalarida ijodiy safarlarda bo'lib, joylardagi maktablar hayoti, iqtidorli o'quvchilar va ularning qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida hikoya qilib borishadi.

Bu galgi hikoyamiz Surxondaryo viloyati, Muzrabot tumanida joylashgan «Bodomzor» mahallasidagi Avlod qishlog'i yoshlari haqida.

Avlodlik yoshlar 30-umumta'lim maktabida tahsil olishar ekan. Iqtidorli o'quvchilarning erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishish maqsadida maktab sari yo'l oldik.

Maktab hovlisiga kirib borganimizda, muassasaning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Choriyor aka Rustamov bizni qarshi oldi. Ma'lum bo'lishicha, Ne'matullo Ishqobilov rahbarligidagi ushbu ta'lim muassasasida 238 nafar o'quvchiga Rashid aka Qobilov, Murodixon Abdurashidov, Dilfuza Jumayeva, Feruza Fozilova, Rohila Mahmudova va Norxol Xudoyqulova kabi jonkuyar ustozlar ta'lim-tarbiya berishar ekan.

– Maktabimizda yaratilgan sharoitlar sababli o'quvchilarimiz talaygina yutuqlarni qo'lga kiritmoqda, – deya suhbatga qo'shildi muassasaning o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Bahodir

Abdurahimov. – Jumladan, 2014–2015-o'quv yilida maktabning 7-«A»

sinf o'quvchisi Manzifa Ashurova «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida faxrli 2-o'rinni, 2015–2016-o'quv yilida 4-sinf o'quvchilari E'tibor To'raqulova, Bekzod Yodgorovlar matematika fanidan tumanda faxrli 2-o'rinni egallashi, maktabimizda ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganidan dalolatdir.

Joriy o'quv yilida «Kamolot» shaxmat taxtasi musobaqasida 2-sinf o'quvchisi Aziza Ravshanova tumanda 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Stol tennis bo'yicha tumanda o'tkazilgan «Umid nihollari» bellashuvlarida esa 9-sinf

o'quvchilari Gulasal Sobirova, Abbosbek Qahhorovlar tumanda tengsiz ekanligini isbotlab, viloyat bosqichiga yo'llanma oldilar.

Bundan tashqari, maktab o'quvchilarining san'atga ham mehri bo'lakcha ekan. Bahoriy sadolar tarannum etganda o'zining nozik

tumanda 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida esa faxrli 3-o'ringa loyiq topilgan.

Maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan davra suhbatida bizni quvontirgan jihat shu bo'ldiki, bu yerda ham gazetamizni doimiy mutolaa qiluvchi Munira Parmonova, Manzifa Ashurova, Boburxon Muxtorov, Sevara Xudoyqulova, Rohat Abdurayimova, Sadoqat Bo'riyevlar kabi zukko o'quvchilar ko'p ekan.

Avlodlik yoshlar tahsil olayotgan maktabda yoshlarning iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, ularning vatanparvarlik, do'stlik va sadoqat ruhida tarbiyalashda qulay shart-sharoitlar yaratilganini ko'rib, yaqin yillarda ushbu ta'lim dargohidan ona Vatanimiz nomini sharaflaydigan iste'dodli yoshlar yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.

Jamoliddin ABDULLAYEV



Malakali ustoz Norxol opa Xudoyqulova o'quvchilar bilan «Tong yulduzi» gazetasining navbatdagi sonini muhokama qilyapti.

harakatlari bilan yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'layotgan Mubina Muxtorova e'tiborimizni tortdi. U ayni vaqtda 3-«A» sinfda tahsil olarkan. 2015-yilda «Kamalak» yulduzlari respublika bolalar ijodiyoti festivalining milliy raqs yo'nalishida

shart-sharoitlar yaratilganini ko'rib, yaqin yillarda ushbu ta'lim dargohidan ona Vatanimiz nomini sharaflaydigan iste'dodli yoshlar yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.

MA'NAVIY OZUQA MANBAI

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining ijodiy xodimlari! Men 5-«A», ukam Abdulaziz 4-«A» sinfida o'qiyimiz. Ukam bilan har yili birinchilardan bo'lib «Tong yulduzi» gazetasiga obuna



Sizlarga ma'naviy yozishimizdan maqsad, sevimli nashrimizning 2016-yildagi birinchi sonini o'qib, juda xursand bo'lib ketdik. «Bolalik kunlarimda» nomli yangi rukn ostida sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalik xotiralarini, birliridan mazmunli voqealarni o'qib, mazza qildik. Yozuvchimiz aytganlaridek, yurtimizda biz yosh avlodga imkoniyatlar eshigi keng ochib berilgan ekan, bizlar bundan unumli foydalanib, oldimizga buyuk maqsadlar qo'yishimiz lozimligini yana bir bor chuqur his etdik.

Sinf rahbarimiz Shahnoza Rahimova va ustozimiz Gulchehra Nurullayeva respublikamizda chop etiladigan bolalarning yagona gazetasi «Tong yulduzi» haqida ma'lumot berib, ma'naviy dunyomizni boyitishga xizmat qilayotganini ta'kidladilar.

Abdulhakim va Abdulaziz HOMICIDOVlar, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 243-umumta'lim maktabining o'quvchilari

Ha, aziz bolajonlar, mazkur maskanni yuqoridagidek atab, adashmadik. Chunki har safar tahririyatimizga maktub kelganida, «Qaqqus» yosh jurnalist va notiq to'garagi o'quvchilarining talaygina ijod namunalarini ko'ramiz. To'garak tashkil qilingan Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Botir aka SHODMONQULOVdan quyidagilarni bilib oldik:

BILIMDONLAR MASKANI

– «Barkamol avlod» bolalar markazi 2011-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda 21 xil to'garaklarda 500 nafarga yaqin o'quvchilar o'z mahoratlarini oshirmoqdalar. Markazning zamonaviy jihozlanganligi, barcha turdagi

axborot-texnologiyalari bilan ta'minlanganligi ham quvonarli holdir. Faollar zali esa har kuni o'tkaziladigan tadbirlar bilan band. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini qamrab olish, ularni hunar o'rganishga jalb qilish maqsadida, «To'garaklarga a'zo bo'lamiz» yarmarkasi tashkil qilindi. O'quvchilarning qiziqishi hamda talablarini inobatga olib, o'tgan yili «Qaqqus» yosh jurnalist va notiq to'garagi tashkil qilindi. To'garak a'zolarining ijod namunalarini o'quvchilarimizning sevimli nashri «Tong yulduzi»da tez-tez chop etib turiladi. To'garakning faol a'zosi, 8-sinf o'quvchisi Zuhra Ergashevaning «Beg'ubor tuyg'ular» she'riy to'plami ham ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Markazimizda turli tanlovlarda faol qatnashgan o'quvchilar juda ko'p. Jumladan, Sayfidin Okanov va Beknazar Qorajonov «Yurt kelajagi – 2015» tanlovining respublika bosqichida munosib ishtirok etdi. Shuningdek, «Katapulta yordamida uchuvchi samolyotlar» ko'rik-tanlovining «Aviamodel» yo'nalishida

Muhammad Qayumov respublika bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

«Ijodim – Vatanimga muhabbatim» shiori ostida o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi ishtirokchisi» tanlovida markazimiz o'quvchisi



Shahzod Narzullayev faxrli o'rinlardan birini egallab, Xalq ta'limi vazirligining 3-darajali diplomi bilan taqdirlandi.

Folklor to'garagi a'zolari qishloqqa-qishloq, yurib, qadimda xalq termalari, aytishuvlari va laparlarini yig'ib, ularni ommalashtirishga bel bog'laganlar. Ular umumxalq bayramlarida, sayillarida munosib ishtirok etishmoqda.

Ham bilim olishni, ham hunar o'rganishni uddasidan chiqayotgan g'allaorollik yoshlarning kelgusida yutuqlari bundan-da ko'p bo'lishiga ishonamiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi

QO'SHALOQ BAYRAM

Yurtimizda Navro'z. Bugun bizning oilamizda qo'shaloq bayram.

Har yili bu kun buvijonimning uylari mehmonlarga to'ladi. Ular bizga o'z qo'llari bilan ko'k somsa yopib beradilar. Katta dasturxon atrofida hammamiz jam bo'lamiz. Buvijonim shu kunlarga yetganimizga shukur, deya ko'p marta takrorlaydilar. «Istiqlol qaytargan an'analarimiz-u urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz bora-bora tiklanib, ommalashib borayotganidan boshimiz ko'kka yetmoqda. Ayniqsa, biz keksalarga juda ko'p qulayliklar, shart-sharoitlar yaratilgan», deydi.

Ha, aytganicha, eng asosiysi yodimdan ko'tarilay debdi. Navro'z bayramida buvijonimning tavallud topgan kunini ham nishonlaymiz. Besh nafar farzandlarini oq yuvib, oq taragan buvijonim ayni damda nabiralarning qurshovida, ardog'idalar. Biz nabiralari ularni muborak 74 yoshlari bilan qutlaymiz. Oilamiz baxtiga doimo sog'-u salomat bo'lib, bizga hamisha bosh bo'lsinlar.

Nabiralari nomidan Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Har yili o'lkamizga

bahor o'zgacha ko'rk, tarovat bilan kirib keladi. Olam, tabiat chiroyiga moslanib, yangi bir go'zallik, yangi bir jo'shqinlik kasb etadi.

Marg'ilon shahridagi 1-umumta'lim maktabi jamoasi Navro'zi olamni zo'r shodiyonalar bilan nishonladilar. Bayram ishtirokchilarini maktab direktori Iqbolxon Davidova obod va go'zal zaminda nishonlanayotgan ezgulik elchisi Navro'z ayyomi bilan hammani samimiy tabrikлади. Maktab badiiy havaskorlik to'garagi qatnashchilari tomonidan bayram dasturi namoyish etildi.

Tadbirda maktab ma'muriyati tomonidan eng faol, a'lochi o'quvchilarga faxriy yorliq, esdalik sovg'alari topshirildi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Lesson 79

Holiday of renewal (Yangilanish bayrami)

Crossword

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Where are the kites found? (Varraklar qayerda paydo bo'lgan?)

The kite is something children all over the world play with. But how and where was the kite invented? And was it always a toy?


The generally accepted wisdom is that the kite was invented in China.

Do you know, in Thailand there are 78 rules in kite fighting.

The longest kite in the world is 1034 metres.

In our country children fly the kites in spring. Especially, in Navruz there are a lot of kites in the sky. It is wonderful to watch them.

Umida UMAROVA



Navruz is a national holiday in Uzbekistan, with celebrations held nationwide for this springtime holiday of renewal. This marks the beginning of a new year for Central Asia. In the days leading up to Navruz, most people engage in volunteer work, in groups (known as hashar), cleaning and decorating their cities or villages.

Sumptuous meals are served, signifying the hope that the coming year will be bountiful. The main dish is called sumalyak and it is served only once each year. It's made the sprouts from of wheat grains, which symbolise eternal life and wheat flour and has the consistency of a thick cream, with a distinctive and pleasant flavour. Sumalyak is offered as a treat to the family members, guests and neighbors'.

According to tradition, on this holiday people forgive one another for all past offences and renew friendships.

Dear my clever friends write these words in English.

1. Shamol.
2. Yer.
3. Liliya.
4. Bulutli.
5. Orxideya.
6. Ko'kalamzor.
7. Erta, vaqlli.
8. Qush uyasi.
9. O'rik.
10. Binafsha.
11. Yomg'ir.
12. Soyabon.
13. Piyodalar o'tish joyi.

Prepared by Dinora SHAKIROVA

What colours are your clothes today?

(Bugun qanday kiyimdasiz?)

Look at the pictures of Anvar and Lola. Find the colours.

Complete the sentences with the colours.

1. Anvar's eyes are black. Lola's sleeveless jacket is _____.
2. His trousers are _____. His sash is _____.
3. Her dress is _____. His shirt is _____.
4. Her wreath is _____. His embroidered skullcap is _____.



Ibrohim BAHROM o'g'li.
YOQUBBEK chizgan rasmlar

In the garden

Find the addresses of these bees:



Shirinoy HAYITOVA,
the pupil of school number 25 in Karshi district,
Kashkadarya region

Ochilgan qip-qizil gullar meni hayron-u lol qildi, Ilm dargohida ustoz hisobsiz gulnihol qildi

Yurtimizga bahor har galgidan ertaroq keldi. Borliq bahordan rang oldi. Tabiatga mahliyo bo'lib qolaman. Birdan telefonim

savollariga javob topishga qiyinalaman. Maktabda o'qib yurgan damlarim yodimga tushadi. O'shanda 8-sinfda o'qirdim.

Ushbu muqaddas dargoh bilan bog'liq xotiralirim borligi bois sizga dilimdagilarni aytgim keldi. Qalbimizni adabiyotning cheksiz bo'stoniga oshno etganligingiz sababli ijod olamidan sira yiroqlashgimiz kelmaydi. O'zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bilan Axtamquliga adabiyotdan dars berganman, deya davralarda faxrlanib so'zlashdan tolmaysiz. Ha, bugun chindan ham ustoz yetmishinchi dovonni zabt

etgan bo'lsa-da, hanuz biz tahsil olgan maktabga rahbarlik qilmoqda. Umring qirq sakkiz yilini bolalarga saboq berishga bag'ishlagan ustoz yigirma uch yildirki bir dargohga rahbarlik qilib kelyapti. Sizning shijoatingizga hech qachon ko'z tegmasin, deymen. Har gal Sariosiyoga borganimda, qadrdon maktabim tomon oshiqaman. Ustozning gullaridan zavqlanib bayt bitishga tushaman:



H. RAMIDULLAYEV olgan surat

Sariosiyo tumanidagi 45-umumta'lim maktabi rahbari Ibrohim Safarov sobiq o'quvchilari bilan.

qo'ng'irog'i jiringlaydi. Go'shakni olaman, olis Surxon vohasidan ustozimiz Ibrohim Safarovning ovozi yangraydi:

– Izimdan ot solar daryo, yiqilsam dod solar daryo,

Nuqul faryod solar daryo, yuvolmasdan g'uborimni...

Izidan daryo yugurib yetolmagan shoir, qandaysan? – so'raydi ustoz, faxr-iftixor bilan. Ustozning

hozirjavob bolalarning ilmini qadrlaymiz. Savollarga zudlik bilan javob qaytargan bolaga to'rt bahoga javob bersa ham, albatta, besh qo'yamiz. O'shanda Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodini so'zlab, besh baho olgandim. Ustozning menga qo'ygan o'sha bahosi hanuzgacha izimdan ta'qib qilib kelayotgani sir emas. O'sha kundan boshlab bir umr hozirjavob bo'lishga intildim.

Ustoz, qarang, bugun yana o'sha gulkor bahor keldi. Bilaman, siz biz tahsil olgan maktab sahnini behisob gul-u gulzorlarga aylantirib yuribsiz.

Ochilgan qip-qizil gullar meni hayron-u lol qildi, Ilm dargohida ustoz hisobsiz gulnihol qildi.

Bu gulzordan muhabbat darsini olgan yigit-qizlar, Vatan tuproqlarin gullarga burkashni xayol qildi.

Kuyunchak bolarilarga mening dil hayratim oshdi, Ular gulkosalardan zavqlanib bizlarga bol qildi.

Urildi gul isi bir zumda olisdan dimog'imga, Hama xizmatni beminnat esib turgan shamol qildi.

Ayo ustoz, bu gulzor oldidan har tong sahar o'tsam, Qizil gullar qizorib, yuzlari menga savol qildi.

Bahorday tez o'tib ketgan o'shal kunlarni eslayman, Bu dargoh qancha yoshlarni bilimdon, barkamol qildi.

Nechun, Axtamquli, gullarga buncha mahliyo bo'lding? Yonib, dilni berib qo'ydim, so'rovimni hilol qildi.

AXTAMQULI

KELING SUMALAKKA!

Navro'zda yashnab falak, Sog'indik, oh, sumalak. Bug'doylarni olinglar, Doshqozonga solinglar. Qozon to'lib biqirlar, Toshlar asta shiqirlar. Mehr bilan kovlaymiz, Charchamaymiz, tolmaymiz. Dardga davo deyishar, Kecha-yu kunduz pishar. Sumalakdan totgani, Yosh-u qari kelishar.

Azizbek UMMATALIYEV, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 200-umumta'lim maktabining 4-«G» sinfi o'quvchisi.

KUYLASHADJ SHOIRLAR



Fozillarning fazlidan, El-u yurtning aslidan, Go'zal yorning vaslidan, Kuylashadi shoirlar. Bahordagi yaprog'ni, Zulmat ichra chiroqni, Yurakdagi hur bog'ni, So'yilashadi shoirlar. Borliqdan ilhom olib, Tunlar uyqudan qolib, Dilni ming kuyga solib, Tillashadi shoirlar.

Yorug' hisga oshnolik, Kuydirar goh tashnolik. Yurtga tilab ro'shnolik, Dillashadi shoirlar. **Farahzoda SAIDOVA, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 9-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

Har gal qishloqqa borganda qarindoshlar bilan ko'rishib chiqqach, bir devor hamsoyamiz – Shodmon buvaning ketmonidan ham xabar olaman. Buva olamdan o'tib ketgan, u kishidan yakka-yu yagona bisot – kattakon ketmon qoldi. O'ziyam ketmonmisan ketmon-da! Naqshinkor, salmog'i ham hazilakammas. Ketmon suvchilik ota kasbi bo'lgan Shodmon buvaning yelkasidan rosa qirg yil deganda tushdi, necha bor sopi yangilandi, beti peshlatildi, ammo salmog'i hali ham o'sha-o'sha. Bolaligimda bu ketmon haqida ajabtovur gaplarni eshitganman...

Shodmon buvaning yog'och darvozasi bilan sadaqayrag'och orasida bir bo'yra joyni egallagan supachasi bo'lardi. Qishloq bolalari supachada yonboshlab yotgan Shodmon buva atrofida ertalabdanoq tizilishib olib, «Buvajon, ertak aytib bering», deya uni holi-joniga qo'ymasdik. Ammo buvaga ertak aytirishdan ko'ra, g'ovak yerni sug'orish oson edi. Ko'pincha buva gapni o'zining ketmoniga burar, biz esa qandaydir qiziqish bilan sukut saqlab o'tirardik.

Buva ketmoni haqida hikoya qilarkan, «Ha, bolalarim, bu ketmon mening temir kosam, temir piyolam, temir yostig'im edi...», derdi.

Bir kuni buvaning «Ketmon – mening iymonim, vijdonim edi», deya so'zlab bergan hikoyasi bir umr yodimda qolgan.

...Qahatchilik yillari. Tutun noyob, cho'g' tanqis. Qozon – suvda, piyozdog'ga tugul, ho'kizning shoxiga moy yo'q, uйда sakkiz jon. Hammasi baravariga chirqiraydi: non, non, non...


O'shanda... o'g'irilik qilganman. Yarim tunda xirmondan bir pud bug'doyni o'marib kelganman. Aniq esimda: o'shanda ham ketmonim yelkamda edi.

Bir pud bug'doy nima degan gap?! Ammo ketmonimning betiga qarolmay qoldim. Unga boshimni qo'yib, achchiq-achchiq yig'ladim. O'g'irilik yomon bo'larkan. «Endi sen dehqon emassan. Halolga haromni aralashitirding, betimni qora qilding»,

deyayotganday bo'lardi ketmonim.

– Ketmonjon, axir ko'rib turibsan-ku, buni o'zim uchun qilganim yo'q. Uyda bolalarim och. Chirqirashlari yurak-bag'rimni ezib yubordi. Uyga qanday qilib borishni bilmay, sen bilan dalada qolib ketayotganimdan xabardorsan...

– Xabardorman, hammasidan xabardorman.



Lekin o'g'irlikni bu bilan oqlab bo'lmaydi.

– Kechir meni, kechir.

– Men-ku, kechiraman, ammo farzandlaring seni kechirisharmikan?

– ...

Keyin-keyin yaxshi zamonlar keldi. Bugun qoplarda, o'ralarda, qirg pudlik sandiqlarda bug'doy, jo'xori. To'kinchilik yildan yilga yaxshi bo'lib bormoqda. Bugun ketmon ham tin olgan. Suvchilik yoshlarga o'tdi. Bora-bora mashhur ketmon haqidagi hikoyalar ham unutila boshladi. Ammo har gal qishloqqa borar ekanman, qarovsiz qoldirilib zang bosa boshlagan, o'tmishning achchiq xotiralari haqida saboq beruvchi ketmondan «xabar» olishni kanda qilmayman.

Jamshid MATYOQUBOV



Har gal xalqaro arenalarda iqtidorli o'zbek o'g'il-qizlarining qo'lga kiritgan ulkan g'alabalari haqida eshitganingda, beixtiyor qalbing faxr-u iftixorga to'ladi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Istiqlol yillarida mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yosh avlod o'rtasida chinakam iste'dod egalarini kashf etish borasida qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasining tashkil etilishi ushbu sohadagi ishlar ko'lamini yangi bosqichga olib chiqdi. Quvonarlisi, bugunga qadar jamg'arma mablag'lari hisobidan shahar-u qishloqlarimizda bir-biridan zamonaviy sport inshootlarining qurilib, foydalanishga topshirilishi, farzandlarimiz o'rtasida sportni ommaviy harakatga aylanishiga, xalqaro musobaqalarda yosh iqtidor egalarining yuksak cho'qqilarni zabt etishiga katta turtki bo'ldi.

MUSOBAQA QIZG'IN PALLAGA KIRDI


Ayniqsa, yosh qilichbozlarimizning qo'lga kiritayotgan yutuqlari tahsinga loyiq.

Aytish mumkinki, ularni oldinda jiddiy sinovlar kutib turibdi. Jumladan, aprel oyida sportchilarimiz yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida ona Vatanimiz sharafiga himoya qilishadi. Aynan ushbu nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik vazifasini o'tab berishi maqsad qilingan qilichbozlik bo'yicha yoshlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionati bellashuvlari hozirda o'zining eng qizg'in pallasiga kirgan.

Bugunga qadar o'tkazilgan bahslarda Jonibek Xolmurotov shpaga yo'nalishida barcha raqiblarini mag'lub etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shuningdek, rapira yo'nalishidagi bellashuvlarda umidli yosh sportchi Maftuna Ilyosova barcha raqibalarini ortda qoldirib, oltin medalga sazovor bo'ldi. U final bahsida kuchli sportchi Madinabonu Parpiyevani mag'lub etgani ahamiyatga molik.

Musobaqalar davom etmoqda.

Sa'dullo TURSINOV



NAMANGANLIK SPORTCHILAR MUVAFFAQIYATI



Namangan viloyati qizlari sportda qo'lga kiritayotgan yutuqlari bo'yicha respublikamizdagi yetakchi viloyatlardan biri sanaladi. Ayniqsa, suv sporti bo'yicha mamlakatimiz terma jamoasi bazasi hisoblanadigan 23-olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi erishilayotgan yutuqlarda o'z o'miga ega. Bugunga kelib 100 nafar qizlar suv sportining 5 turi – vaterpol, suvga sakrash, sinxron suzish, slalomda eshkak eshish bo'yicha mashg'ulotlarga jalb qilingan. Ahamiyatli, vaterpol bo'yicha viloyat terma jamoasi tarkibining barcha a'zolari ushbu muassasa tarbiyalanuvchilardir. O'tgan yili maskan tarbiyalanuvchilari Toshkent va Namanganda vaterpol, suvga sakrash, slalomda eshkak eshish bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 24 oltin, 91 kumush va 45 bronza medallarni qo'lga kiritdi.

N. JAVHAROVA

«TONG YULDUZI»DA YULDUZCHALAR BAHSI

Poytaxtimizdagi «Tong yulduzi» nomli 284-maktabgacha ta'lim muassasasida navbatdagi sport bayrami bo'lib o'tdi.



YOSH SHAXMATCHILAR MUSOBAQASI

Poytaxtimizda 14, 16 va 18 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Mazkur musobaqada 150 dan ziyod sportchilar o'zaro bellashdi.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar bahsida Xorazm viloyatidan Nodirbek Yoqubboyev 8,5 natija bilan g'olib bo'lib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Qashqadaryolik Abdumalik Abdusalimov 2-, Surxondaryo vakili Muhammadali Abdurahmonov 3-o'rinni egalladi.

Qizlar o'rtasida poytaxtlik Leyla Kim oltin, navoiylik Sitora Saparova kumush, Samarqand viloyatidan Zebo Usmonova bronza medalga loyiq topildi.

O'n olti yoshgacha o'g'il bolalar bahsida poytaxtlik shaxmatchilardan Saidakbar Saidaliyev 1-, Ortiq Nig'matov 2-, Sarvarbek Olimjonov 3-o'rinni egalladi. Qizlar musobaqasida xorazmlik Nilufar Yoqubboyeva oltin, qoraqalpog'istonlik Mohim Orazmuhammedova kumush, toshkentlik Svetlana Chaykina bronza medalni qo'lga kiritdi.

Poytaxtlik Odil Rahmon va Bahora Abdusattorova o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida oltin medalga sazovor bo'lishdi.

Ulug'bek SAIDOV

Ra'no G'afforova rahbarlik qilayotgan mazkur MTMda badiiy gimnastika, shaxmat, shashka, taekvando kabi sport turlari bo'yicha to'garaklarning tashkil etilgani sabab tarbiyalanuvchilar tuman miqyosida o'tadigan «Sog'lomjon – Polvonjon» musobaqasida ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallashdi.

MTM dastur rejasidan joy olgan «Kosmosga sayohat» nomli sport bayrami ham tuman va shahar miqyosida o'tadigan bellashuvlarga tayyorgarlik vazifasini o'tab bersa, ajab emas. Mazkur bellashuvda «Raketa» hamda «Inoplaneta» nomli 6–7 yoshli o'g'il-qizlardan iborat ikkita jamoa o'zaro

bahslarga kirishdi. 16 ta shart natijalariga ko'ra, 38:31 hisobida «Raketa» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Musobaqalarni o'tkazishdan asosiy maqsadimiz, tarbiyalanayotgan o'g'il-qizlarimizni jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan mehri oshirish, ularni qaysidir sport turiga oshno etishdan iborat, – deydi Ra'no G'afforova. – Qolaversa, bunday tadbirdan yana bir ko'zlangan maqsad bog'cha, mahalla va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Shoh MUHAMMAD



Ko'kda uchayotgan varrakni ko'rdim. U qush kabi erkin parvoz qilardi.

Bola edim. Yerga ursam, ko'kka sapchirdim. Hozir osmonda uchayotganday varrakning ipini o'shanda men ham mahkam ushlagancha, do'stlarim bilan kimning varragi balandroq uchishini kuzatib charchamasdim. Quchoq-quchoq lolalar terib, yaqinlarimizga eltardik. Sumalak qaynayotgan doshqozon atrofida oshiqardik, tutundan ko'zlarimiz yoshlanib, qozon kovlardik. Sumalak pishgach, undan toshmi, yong'oqmi chiqib qolsa, dunyoda bizdan baxtli inson bo'lmasdi.

Bugun yana ko'kda uchayotgan varrakni ko'rdim.

Men seni sog'indim, Navro'z!

MEN SOG'INGAN NAVRO'Z

Navro'z uzoq tarixga ega bayramdir. Bu haqda ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida batafsil ma'lumot berib o'tgan. Lekin nima uchun Navro'z aynan 21-mart kuni nishonlanishini bilasizmi? Buning sababiga hech qiziqib ko'rganmisiz? Keling, yaxshisi, olimlarning fikriga quloq tutaylik.

YANGI KUN QUVONCHI

Astronom olimlarning ilmiy tekshirishlaridan shu narsa ma'lum bo'lganki, har yili 21-martda qish fasli butunlay tugab, bahorning birinchi kuni boshlanar ekan. Kun bilan tun tenglashib, ona yer qishki uyqudan uyg'onarkan.



Ota-bobolarimiz foydalanib kelgan hijriy-shamsiy taqvimiga ko'ra shu kundan boshlab hamal oyining birinchi kuni kirib, yangi yil, yangi kun boshlanar ekan. Shu sababdan bu kunni «Navro'z», ya'ni «YANGI KUN» deb atashgan. Navro'z kelgach, hamma narsa yangilanadi, uyg'onadi. Daraxtlar tanasiga suv yugurib, kurtaklar barg yozadi. Atrofni yashillikka burkab tashlangan mayasalar hayot yangidan boshlanganini ko'z-ko'z qilganday bo'ladi, go'yo. Bobodehqonlarimiz zaminga yangi urug' sepa boshlaydilar. Zero, dono xalqimiz «Hamal kirdi – amal kirdi», deb bejizga aytmagan...

Niginaxon AKMAMATOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi texnika akademik litseyi o'quvchisi

BAYRAM TESTI

1. «**Ki bu sir erur olam afzur ham, Xususan, erur fasli Navro'z ham**»... Ushbu bayt Alisher Navoiyning qaysi dostonidan olingan?

- A) «Saddi Iskandariy»;
- B) «Farhod va Shirin»;
- D) «Hayrat-ul-abror»;
- E) «Sab'ayi sayyor».

2. **Qaysi yildan Navro'z umumxalq bayrami kuni deb e'lon qilindi?**

- A) 1989-yil 21-martdan;
- B) 1990-yil 21-martdan;
- D) 1991-yil 21-martdan;
- E) 1992-yil 21-martdan.

3. **Rivoyatlarga ko'ra Navro'z (21-mart) va Mehrjon (21-sentyabr) bayramlaridan boshqa har kuni ilm bilan mashg'ul bo'yilgan qomusiy olim kim?**

- A) Mahmud Qoshg'ariy;
- B) Abu Rayhon Beruniy;
- D) Abu Ali ibn Sino;
- E) Alisher Navoiy.

4. **Navro'z kuni qanday shirinlik paydo bo'lgan?**

- A) shakar;
- B) qand;
- D) konfet;
- E) holva.

Nodira NAZAROVA

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

«AZALIY AYYOM»

topshiriqli aylanma skanvord

Skanvordni hal etgandan so'ng shaklning o'rtasidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan alloma, ruboiynavis shoir Umar Xayyomning bahoriy ayyomni asoslab berilgan nodir asari ayon bo'ladi.

3	1	2	3	4	5	6
1. Bahor elchisi, qush	2. Qizil gul	3. Bargli nordon ekin	4. Navro'z oyi	5. O't-mish boyligi	6. Suv bo'yl	
7. Yirik parranda	8. Milliy sport	9. Suv mambal, buloq	10. Sayroq qush	11. Yangi o'tlan	12. Boshqil hosil	
13. Xushbo'y oshko'k	4				14. Xushbo'y g'iyoh	
	1	3	8	2	6	5
15. Baxt asosi						6
						16. Azaliy ayyom
	7					
17. Ko'rkam qush	18. Bug'doy to'p-gull	19. Katta varrak	20. Qu-yosh nuri	21. Ko'not, fazo	22. Poliz ekini	
23. Shamolda uchadi	24. Rohat, hurzur	25. Balig turi	26. Suv joni-vori	27. Gulzor maskan	28. Xur-sandlik	
						10

Tuzuvchi: Foziljon OROPOV

21-mart 2016

Bahrom AKBAROV

HAYVONOT OLAMI ALIFBOSI

(Davomi. Boshi 6-sonda)

«M»da Mushukni ko'rdim, Mo'rjarga salom dedim.



«L»da Lochin shiddatkor, Laylakday oshnasi bor.



«O»da Olmaxon qarang, U yerda yurar arang.



«N»da silliq Nutriya, Hamda qari Nortuya.

«P»da Panda va Pingvin, Ishonmasangiz ko'ring.



«Q»da bordir Qirg'ovul, Qirg'iy unga bakovul.



(Davomi bor)

8

Bosh muharrir **Feruz ADILOVA**

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir Shavkat KAZAKBAYEV
Rassom Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma ta'beq. ISSN 2010-6092 Adadi – 51562 Buyurtma – S 5448